



**Talabalar ijodiy pedagogik faoliyati tajribasi shakllanganligi darajalari va
o'rganilayotgan jihatda sifatli tavsifi.**

JDPU dots. Ergasheva Matluba Burxonovna

Anotatsiya: Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi»da asosida boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasiga ta'rif beriladi: «...eng muhimi bolalarda o'qishga, o'rganishga, fanlarga ishtiyoq uyg'otuvchi, ma'naviy-marifiy e'tiqod hosil qiluvchi ustoz, murabbiy sifatida alohida o'rin tutadi.» shuningdek, ushbu konsepsiyada boshlang'ich sinf o'qituvchisi fazilatlariga ko'plab qo'shimchalar keltiriladi. O'qituvchilar: «...O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonch uyg'otadigan milliy iftixorli bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: Pedagogik madaniyat, pedagog, nutqiy ravonlik, kasbiy ravonlik, boshqaruvchanlik, ish yurita olish, o'quvchi jamoasiga rahbarlik, tashkilotchilik, voqiylikni to'g'ri baxolay olish.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining – shaxsga ta'lim berish-o'qitish, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, mantiqiy izchillik asosida, oddiylikdan murakkablikga tomon rivojlanib boradigan ketma ketlikda bir-biri bilan bog'langan bosqichlarni ifodalovchi tarkibiy-tashkiliy elementlar jamlanmasi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim: 6-7 yoshli hamda 10-11 yoshli bolalarda umumiy o'rta ta'lim olish uchun kerakli bo'lgan savodxonlik, bilim-ko'nikma asoslarini shakllantirishning maqsadini amalga oshirishga yo'naltirilgandir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi»da asosida boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasiga ta'rif beriladi: «...eng muhimi bolalarda o'qishga, o'rganishga, fanlarga ishtiyoq uyg'otuvchi, ma'naviy-marifiy e'tiqod hosil qiluvchi ustoz, murabbiy sifatida alohida o'rin tutadi.» shuningdek, ushbu konsepsiyada boshlang'ich sinf o'qituvchisi fazilatlariga ko'plab qo'shimchalar keltiriladi. O'qituvchilar: «...O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonch uyg'otadigan milliy iftixorli bo'lishi kerak;

– bolalarni halq pedagogikasi durdonalari asosida, hamda milliy qadriyatlarimizni singdirish bilan tarbiyalay olishi;





– nutqiy ravonligini, halq tilining boyligini ifodalovchi usul va tasvir vositalarini adabiy til uslubiy meyorlarini to‘la egallay olishi » zarurdir.

Pedagogik madaniyatni – pedagogning shaxs, hamda o‘z kasbining mutaxassisi sifatida muayyan xulq-atvoriga, odob-ahloqiga, muomalasiga, hatti-harakatlariga ko‘nikma-malakalarini o‘zlashtirish darajasi, pedagogning kasbiy vazifalarini hal qilishda usul-vositalarini o‘zlashtirganlik darajasi, pedagogik bilimdonlik, taktik va texnik madaniyatini namoyon qila olishlik yuqori darajasidir. Pedagogik odob – pedagog (o‘qituvchi) ma’suliyati, kasbiga sodiqligi, jamiytdagi o‘rni, bolalarga (o‘quvchilarga) va o‘quv-tarbiya jarayonidagi boshqa barcha ishtirokchilariga nisbatan munosabati samimiy, ochiq bo‘lishiga nisbatan qo‘yiladigan axloqiy talablar tizimidir.

Bugungi kunda barcha sohalarida bo‘lgani singari, ta’lim va tarbiya tizimiga zamonaviy yondashish, qulay shart-sharoitlar yaratilib berilayotgan ta’lim maskanlarida o‘quvchilarga dars berishlari uchun keng imkoniyatlarni davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar, bo‘lajak o‘qituvchilar oldiga quyidagi jihatlarga e’tibor berib, kasbiy faoliyatini tashkil etishlari ta’kidlanadi:

Zamonaviy sharoitda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi shaxsiga nisbatdan namoyon bo‘lishi kerak bo‘lgan sifatlarni quyidagicha turkumlash mumkinligini ko‘rsatib o‘tamiz:

Shu bilan bir qatorda bugungi kun zamonaviy sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi quyidagi amaliy malakalarni o‘zlashtirib olgan bo‘lishi lozim:





Бошланғич таълим ўқитувчиси
қуйидаги амалий малакалари

- 1) билишга оид (гностик) малакалар;
- 2) лойиҳалаш малакалари;
- 3) ижодий-амалий (конструктив) малакалар;
- 4) тадқиқотчилик малакалари;
- 5) мулоқотга кирувчанлик (коммуникатив) малакалари;
- 6) ташкилотчилик малакалари;
- 7) изчилликни таъминловчи (процессуал) малакалар;
- 8) техник-технологик малакалар.

Zamonaviy sharoitda bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi quyida asoslangan ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalarni o‘zlashtira olgan bo‘lishi zarur:

- har bir ma‘lumotlardan foydalanganda alohida-alohida o‘quv va tarbiyaviy harakterdagi materialni shakllantirish;
- turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqa o‘quv materialini bilan boyitish;
- original o‘ziga xos o‘quv materialini tayyorlash;
- yangi metodlarni asosida mustaqil ravishda foydalanish;
- ko‘rsatmali qurollar to‘plamini o‘quv mashg‘uloti (dars) va tarbiya tadbirlar uchun yaratish;
- darsning, tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, haritasini yaratish;
- multimediya materiallardan dars yoki tarbiyaviy tadbirlarda foydalanish uchun yaratish;
- taqdimot variantlarini o‘quv materiallariga moslab tayyorlash;
- o‘quvchilarning faol ishtiroki uchun turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar video-roliklar yaratish;
- baholash mezonlarini turli shakl va metodlarga asoslangan sinov (savol, misol, mashq, test, topshiriq, masala) topshiriqlari ishlab chiqish;





- ijodiy yondashishda nazorat ishlarini tashkil etish.

Zamonaviy sharoitda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisida muloqotga kirishuvchanlik (kommunikativ malakalar) namoyon bo'lishi zarur:

- ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar, o'quvchilar, ota-onalar bilan muloqotda turli shakl, metodlardan foydalanish;

- amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabatlarni pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan o'rnatish;

- samarali yo'l va vositalarini bilan o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkazish;

- o'quvchining javobi yoki shaxsiy fikrlarini topshiriqlar yuzasidan tinglay bilish;

- yuzaga keladigan pedagogik jarayonlardagi nizolarni oldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;

- o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni, jamoa va turli bosqichda mustahkamlab borish;

- raqobatga asoslangan muhitni jamoada sog'lom qaror toptirish;

- o'quvchilarning faoliyatlarini doim rag'batlantirib turish;

- o'quvchi xatti-harakatidagi kamchiliklarga, javobidagi xatolarga munosabat bildirish;

- ta'limiy hamkorlikka o'quvchilar bilan erishish.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining quyidagilarda aks etgan texnik-texnologik malakalarga egaligi:

- zamonaviy texnik vositalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish;

- texnologik pasport va texnologiya harita yordamida dars jarayoni mazmunini yoritish;

- slaydlar yoramida o'quv materialini mazmunini tayyorlash;

- axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

- ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;

- proyektorni darslarda qo'llay olish;

- audio va video yozuvlari, taqdimot asosida o'quv materiallarini bayon qilish;

- axborot texnologiyalarini o'quvchilarga o'quv materialini mustahkamlash va o'quv topshiriqlarini berishda qo'llash;





- o'quv topshiriqlarini kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir ishlab chiqish;

- kompyuter asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni tashkil etish;

- kompyuter yordamiga o'quvchilarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda tayanish va boshqalar.

Shu o'rinda talabalarni o'rganilayotgan bo'lajak kasbiy faoliyat jihatini amalga oshirishga tayyorlashning bir butun didaktik tizimini ishlab chiqishda ishlatiladigan «mohiyat» va «tizim» tushunchulari mazmunini aniqlash maqsadga muvofiq.

Hozirgi vaqtda fanda didaktik tizimli yondashuv deganda «...borliq hodisalarini ilmiy aks etishning o'ziga xos usuli ekanligi, uning yordamida yetarli darajada o'ta murakkab bo'lgan hodisa tahlilini aniqlik bilan bajarish mumkinligini» nazarda tutadi. O'ziga xos tizimli tadqiqot, A.I.Uyemov fikriga ko'ra, «...ob'ektlarni aynan tizimni bildiruvchi jihatida tadqiq qilishdan iborat, sababi bir xil ob'ekt bir holda tizim sifatida, boshqa holda esa tizim bo'lmagan sifatida ko'rib chiqilishi mumkin» .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida» Qonuni. // QHMMB: 03/20/637/1313-son 24.09.2020 y
2. Aminov, I., Ergasheva, M., Oqnazarov, T., & Ismanova, A. (2025, September). Opportunities and features of using mobile applications in an electronic learning environment. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3356, No. 1). AIP Publishing.
3. Aminov, I., Ergasheva, M., Oqnazarov, T., & Ismanova, A. (2025, September). Opportunities and features of using mobile applications in an electronic learning environment. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3356, No. 1, p. 040005). AIP Publishing LLC.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.
5. Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari. Ped. fan. doktorlik. diss. . . -T, 2003.

